

PAPER

# ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA ONA TILI DARSLARIDA GRAMMATIKANI O'RGATISH USLUBIYATI

Turg'unboyeva Zulxumor Ibroximjon qizi<sup>1,\*</sup> and Ahmadjonova Muazzam Avazbek qizi<sup>2</sup>

<sup>1</sup>QDPI Maxsus pedagogika kafedrasi oqituvchisi and <sup>2</sup>QDPI Surdopedagogika magistranti

\*Zulxumor@mail.ru

## Abstract

Ushbu maqolada eshitishida muammolari bo'lgan o'quvchilarni ona tili darslarida grammatik tushunchalarni shakillantirishda metodik yondoshuvlar to'g'risida mulohazalar yuritilgan.

**Key words:** "Sof og'zaki metod", o'qish metodikasi, sintetik metod, so'z birikmalari, A.F. Pongilskaya, lug'at boyligi, o'qitish metodikasi, o'qilganni mazmunini o'zlashtirish, lug'at, fakt, voqeа, obrazlar, voqeaviy bog'lanish.

## Kirish

Grammatik tushunchalarda ham, boshqa tushunchalar kabi, hodisalarining muhim belgilari umumlashtirilgan holda aks ettiriladi. Til hodisalarining o'ziga xos xususiyati, ya'ni tushunchaning mazmun tomoni grammatik tushunchaning o'ziga xos xususiyatini keltirib chiqaradi. Til hodisalari, til kategoriyalari boshqa hodisalarga nisbatan juda mavhumligi bilan farqlanadi. Biologik tushunchalarni shakl-lantirishda belgilarini kuzatish, bir tizimga solish va umumlashtirish mumkin bo'lgan aniq hodisalar va predmetlar material sifatida asos qilib olinadi.

Grammatik tushunchalar esa so'z, so'z birikmasi, gap, morfema, leksema, fonema va boshqalaming o'ziga xos muhim belgilarini aniqlash va umumlashtirish natijasi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, kishilar tomonidan yaratilgan grammatik tushunchaga asos bo'lgan dastlabki materialning o'zi yetarli darajada mavhum- dir. Demak, grammatik tushunchalar umumlashtirilganlarning yana umumlashtirilgani hisoblanadi.

Grammatik tushunchaning bu xususiyatlari tufayli o'quvchilarda tushuncha juda ko'p qiyinchilik bilan shakllanadi. Grammatik tushunchani bilib olish uchun mavhum tafakkur ma'lum darajada rivoj- langan bo'lishi lozim. Mavhum tafakkur ta'lif jarayonida vujudga keladi va maxsus mashqlarni talab qiladi. Bu mashqlar muayyan aqliy ko'nikmalarni va

lingvistik tasawur hamda bilimlar yig'indisini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi zarur.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Ko'pgina ruhshunos olimlarning tekshirishlari natijasida aniqlanishicha, tushunchani shakllantirish jarayoni tafakkurga oid analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, aniqlashtirish amallarini bilib olish jarayoni ham hisoblanadi. O'quvchilarda tushunchani shakllantirishning natijasi ularning mavhumlashtirish faoliyatining qaydarjada o'sganligiga bog'liq.

Yozma nutqning kar va zaif eshituvchi bola uchun mos va sodda shakl ekanligi haqida k'pgina mualliflarning ishlardida ma'lumotlar mavjud. Ulardan masalan F.F.Rau ishlarida bolalarning kartochkalar asosida s'z yoki jumla tarkibini 'zlashtirish jarayoni yuritilgan.YE.P.Musatovning fikricha yozma nutq dastlab predmetlar va namoyish etilishi kerak b'ilgan yoki etilgan harakatni ifodalash uchun beriladi. Faqat ritmika darsida undan foydalanishga t'xtalganda muallif yozma nutqning ahamiyatini k'rsatib 'tadi.

Bunda u buyruqlar («'ngga», «tur», «yugur», «roslan» kabilar)ni bolalarga berishda kartochkalardan foydalanishni k'zda tutadi .T.V. Nesterovich esa yozma nutqqa 'zgacha yondoshadi. Uning tavsiyalarida k'rsatilishicha, kar bola qanchalik erta mustaqil

yozishni bilsa, u atrofdagilar bilan kengroq muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik tez ega b'jadi. Mazkur muallifning ishlarida kar va zaif eshituvchi Eshitishida nuqsoni b'lgan bolalarning s'zlarni bilishi, predmetlarni nomlashi, gap tuzishi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq u ham nutqiy materialdan bevosita muloqot jarayonida foydalanish ustida t'xtalmaydi. Nesterovich TV. Nesterovich fe'lning ahamiyatini holat va harakat ifodasi sifatida biladi. Boshqa mualliflar esa fe'lni harakatga undovchi sifatida ta'riflaydilar. Bundan tashqari I.K. Kislitina, YE.Ponamaryova va L.Kimlar olib borgan tadqiqotlari fanning rivojida munosib o'ringa egadir

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavhumlashtirishda qiynaladigan o'quvchilar so'zlarni taqqoslaysa olmaydilar va ularning muhim grammatik belgilariga ko'ra bir guruhga birlashtira olmaydilar, tushunchani shakllantirishda qiynaladilar va xatoga yo'l qo'yadilar. Masalan, fe'l o'rganilganda o'quvchilar fe'l predmetning harakatini bildirishni bilib oladilar. Yurmoq, o'qimoq, olmoq kabi fe'llarda leksik ma'nou grammatik ma'noga mos keladi. Ko'p fe'llarda bunday moslik bo'lmaydi.

Grammatikada predmet harakati deyilganda, harakat bilan birga predmetning holati, uning boshqa predmetlarga munosabati, predmet belgisining o'zgarishi kabilari ham tushuniladi: uxlamoq, 'ylamoq, sevmoq, o'smoq, ko'karmoq va hokazo. Predmet harakatini bunday keng ma'noda, umumlashtirilgan holda tushunish endigina tilni o'rgana boshlagan o'quvchilarga qiyinlik qiladi, ular harakatni ko'proq yurish, siljish ma'nosida aniq tasawur qiladilar. Shuning uchun fe'lni o'rganishning boshlang'ich bosqichida yotmoq, kasallanmoq, turmoq, qizarmoq kabi so'zlarni predmet harakatini bildiradi deb hisoblamaydilar. Bunday hodisani otni o'rganishda ham uchratish mumkin. Ayrim o'quvchilar tinchlik, qahramonlik, qadam kabi so'zlarni ot turkumiga kiritmaydilar.

Tushunchani shakllantirish uchun o'quvchilarda mavhumlashtirish ko'nikmasini o'stirish, ular diqqatini so'zning aniq leksik ma'nosidan grammatik ma'nosiga qaratish va shu guruhdagi so'zlarga oid umumiy, grammatik belgilarni hisobga olgan holda, ularni bir guruhga birlashtirish talab etiladi. Masalan, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan barcha so'zlar „ot“ turkumiga birlashadi; predmet bildirish, son (birlik va ko'plikda kelish), egalik qo'shimchalar bilan o'zgarish, kelishiklar bilan turlanish bu so'zlar uchun umumiy grammatik belgilarni hisoblanadi. Tushunchani shakllantirishda xatoning oldini olish uchun ta'lim berish jarayonida qator metodik talablarga rioya qilinadi.

## TAHLILLAR VA NATIJALAR

Grammatik tushunchalarda til hodisalarining muhim belgilari umumlashtiriladi. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishslash jarayonida o'rganiladigan muhim belgilarni ajratish maqsadida muayyan til materiali analiz qilinadi. Masalan, so'z o'zgartuvchi qo'shimcha uchun quyidagi ikki muhim belgi xarakterli:

1) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha — so'zning o'zgaradigan qismi;

2) so'z o'zgartuvchi qo'shimcha sintaktik vazifani bajaradi, ya'ni gapda so'zlarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Til materialini analiz qilish jarayonida o'rganiladigan tushunchaning muhim belgilari ajratiladi (tushuncha ustida ishslashning birinchi bosqichi), so'ng belgilarni o'tasidagi bog'lanish topiladi, bir tushunchaning xususiyati sifatida ular orasidagi o'zaro munosabati aniqlanadi, atama beriladi (tushuncha ustida ishslashning ikkinchi bosqichi). O'quvchilar o'rganilgan tushuncha muhiyatini anglashlari va bilimlarni nutq tajribasiga tatbiq etishlari uchun tushuncha ta'rifini aniq ifodalash ustida ishlanadi (tushuncha ustida ishslashning uchinchi bosqichi); to'rtinchi bosqichda o'rganilgan kategoriyani bilib olish uchun mashq qilinadi; amaliy vazifani hal qilish maqsadida (fikrni aniq ifodalash, so'zni va gapni to'g'ri yozish uchun) o'quvchilarda tushunchaga asoslanish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Shunday qilib, tilga oid tushunchalarni shakllantirish jarayoni shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi: Birinchi bosqich — tushunchaning muhim belgilarini ajratish maqsadida til materialini tahlil qilish. Bu bosqichda ma'lum so'z va gaplarning leksik ma'nosidan kelib chiqib mavhumlashtirish amalga oshiriladi va shu til hodisasi, til kategoriyasi uchun umumiyy hisoblangan ajratiladi. O'quvchilar tahlil qilish va mavhumlashtirish aqliy amalini bilib oladilar.

Ikkinchi bosqich — tushunchaning belgilarini umumlashtirish, ular orasidagi bog'lanishni aniqlash(tushunchalarning ichki bog'lanishini aniqlash). atamani berish. O'quvchilar taqqoslash va tarkib amalini bilib oladilar.

Uchinchi bosqich — tushuncha ta'rifini ifodalashni tushunish, belgilar mohiyatini va ular orasidagi bog'lanishni aniqlash.

To'rtinchi bosqich — yangi til materiali asosida o'rganilayotgan tushunchani aniqlashtirish, bilim tajribaga tatbiq etiladigan mashqlar ish-lash, o'rganilayotgan tushunchaning ilgari o'zlashtirilgan tushunchalar bilan bog'lanishini aniqlash.

Bu dars fragmentida tushuncha bilan tanishtirish jarayonining yuqorida to'rt bosqichi qisqa shaklda o'z aksini topgan. Biroq bu darsda o'quvchilar tushuncha bilan faqat tanishtirildi, uni o'zlashtirish uchun esa dasturda mavzuni o'rganishga ajratilgan barcha darslardagi mashqlar tizimini bajarish lozim.

## XULOSA

Mavzuni o'rganish jarayonida „Fe'l“ tushunchasi chuqurlashadi va kengayadi, o'quvchilar fe'lning yangi belgilarini o'rganadilar (fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik, ularning shaxs-son qo'shimchalar bilan tuslanishi, fe'l zamонлари). O'quvchilarda fe'llarni shaxs-son, zamon, bo'lishsizlik qo'shimchalar bilan o'zgartirish va fikr bayon etish maqsadiga mos fe'l shakllardan nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. Tushunchani shakllantirish jarayonida so'zning leksik ma'nosi, uning gap tarkibida boshqa so'zlar bilan birga kelgandagi ma'nosi asta-sekin aniqlanib, oydinlashtirilip boriladi, og'zaki va yozma nutqda so'zni uslubiy to'g'ri ishlatisht ko'nikmasi orta boradi. O'rganilgan grammatik belgilarni amalga keng tatbiq etish va ulardan jonli nutqda aloqa maqsadida bevosita foydalanish uchun grammatik tushunchani shakllantirishda o'quvchilarda mavhumlashtirishni va so'zlar uchun xarakterli bo'lgan umumiyy grammatik belgilarni sintezlashni o'stirish zanir, shuningdek, ular so'zning leksik ma'nosini chuqur bilishlariga erishish muhimdir. Bular o'quvchilarning nutqini o'stirish mohiyatini aks ettiradi, yani o'quvchilar nutqda so'zlardan amaliy foydalanishga, so'zning leksik ma'nosini tor tushunishdan chuqurroq tushunishga o'tadilar, so'zning leksik va grammatik ma'nolari bir-biriga ta'sir qilishini tushuna boshlaydilar, natijada nutqda so'zlardan ongli foydalanishga asos yaratiladi.

## References

- Daughter, Turgunbayeva Zulkhumor Ibrahimjon. "CAUSES OF HEARING DEFECTS AND DESCRIPTION." Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 11 (2023): 653-656.
- Nigina, Abdunazarova, and Yolchieva Dilfuza. "TECHNOL-OGY FOR THE DEVELOPMENT OF SPEECH LOGIC IN NATIVE LANGUAGE LESSONS WITH STUDENTS OF SPECIAL INSTITUTIONS." Galaxy International Journal of Interdisciplinary Research 11 (2023): 1086-1090.
- Ibragimovna, Turgunboyeva Zulxumor. "ZAIF ESHITU-VCHI OQUVCHILARNI NUTQIY SIFATLARINING RIVOJLAN-ISH XUSUSIYATLARI." Science Promotion 1 (2023): 131-138.

4. Turgunbayeva, Zulkhumor Ibragimovna. "Organizing Inclusive Education for Children with Autistic Spectrum Disorder." American Journal of Education and Evaluation Studies 1.7 (2024): 175-178.
5. Mashhura, Boltayeva Gulsevar Xoldoraliyeva Rano Tursunova, and Abdurahimova Munisa Meliqoziyeva Shahzoda Turgunboyeva Zulkumor. "JAHON MAMLAKATLARI TA'LIMINING TASHKIL ETILISHI VA TARAQQIYOTI MASALALARINING TAVSIF ETILISHI." Conference 12.12 (2023): 563-571.
6. Nazarova D.A. Maktabgacha yoshdagi zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish Ped. fan. nomz. dis. avtoref... – T.:TDPU.2009.
7. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalar ta'lmini takomil lashtirish. // Bolani maktabga tayyorlash sifat va samaradorligini oshirishning ilmiyamaliy chimlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T., 2007. – B. 60-63.
8. Nazarova D. Eshitishida muammosi bo'lgan bolalarni oilada maktab ta'limga tayyorlash. Ota-onalar uchun metodik qo'llanma. –T.: A.Avloniy nomidagi XTXQTMOMI, 2007.–
9. .. , . – .: , 1999.
10. L.M. Bikova, E.E. Vishnevskaya. Metodika razvitiya rechi gluxix shkolnikov v mladshix klassax. – L., 1979